

**O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIYOTIDA TILAK VA ISTAK AKTLARI
(MAQOL, MATAL, DUO, OLQISHLARDA)**

Xoliqova Oltinoy Shodi qizi

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 29-maktab o'qituvchisi.

Oltinoyxoliqova4@gmail.com

+998972919100

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodiyotida tilak va istak aktlarining mazmun-mohiyati, ularning lingvopragmatik, semantik va kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqol, matal, duo va olqishlarda xalqning ezgulik, baraka, totuvlik va baxt kabi qadimiy orzu-umidlari qanday ifodalanishi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tilak-istak formulalarining mifiy ildizlari, qadimiy marosimlar bilan bog'liqligi hamda zamonaviy nutq madaniyatidagi davomiyligi izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *tilak, istak, maqol, matal, duo, olqish, og'zaki ijod, folklor, pragmatika, kognitiv lingvistika.*

Annotation. *This article analyzes the linguopragmatic, semantic, and cognitive features of wishes and blessing acts in Uzbek oral folk literature (proverbs, sayings, prayers, and blessings). It demonstrates how these acts reflect traditional concepts of goodness, well-being, harmony, and happiness. The article examines the mythological roots of these acts, their performative function in ritual speech, psycholinguistic effects, and social role in society. The findings confirm that wishes and blessings are not only a genre of oral creativity but also an essential part of national culture and collective cognition.*

Keywords: *wishes, blessings, proverbs, sayings, prayers, oral literature, folklore, pragmatics, cognitive linguistics, national culture.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвопрагматические, семантические и когнитивные особенности актов пожеланий и благопожеланий в устном творчестве узбекского народа (поговорки, пословицы, молитвы и благословения). Показано, как пожелания отражают традиционные представления о доброте, благополучии, гармонии и счастье. Рассмотрены мифологические корни этих актов, их перформативная функция в ритуальной речи, психолингвистическое воздействие и социальная роль в обществе. Результаты исследования подтверждают, что акты пожеланий являются не только жанром устного творчества, но и важной частью национальной культуры и коллективного мышления.*

Ключевые слова: *пожелания, благопожелания, пословицы, поговорки, молитвы, благословения, устное творчество, фольклор, прагматика, когнитивная лингвистика.*

Kirish. Til inson tafakkuri mahsuli sifatida inson kamolotida ma'naviy hayotida yuksak ahamiyat kasb etadi. Til ijtimoiy hodisa sifatida inson ongidagi fikr mulohazalarning nutqiy ifodasi sanaladi. Nutqning ravonligi, jozibadorligi uni san'at darajasiga ham chiqara oladi. Shu sabab ham ijodiy ishlar, badiiy asarlar dunyoga keladi. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti ham buning misoli hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodiyoti milliy ma'naviyatning eng qadimiy, eng boy va nafis qatlamlaridan biridir. Bu bebaho meros nafaqat xalqning tarixiy tajribasi balki orzu-istaklari, intilishlarini, ruhiy ma'naviy dunyosini ham yuksak badiiy ifodasi hisoblanadi. Ayniqsa tilak, istak bildiruvchi nutq namunalari: matal, duo, olqishlar, maqol, janrlari adabiyotning eng ta'sirchan eng rangin jonli ko'rinishi. Ular xalqning ezgulik, baraka, tinchlik, baxt, farovonlik kabi qadimiy intilishlarini aks ettiradi.

Xalq og'zaki ijodi-xalq ommasining badiiy ijodiy, amaliy va havaskorlik faoliyati; an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi folklor, xalq o'yinlari, xalq musiqasi kiradi

Tilak va istak aktlarida ishlatiladigan asosiy leksik birliklarni tahlil qiladigan bo'lsak, ular bir nechta semantik yo'nalishlarda jamlangan.

-baraka va mo'l-ko'llik bilan bog'liq leksik birliklar: "baraka bo'lsin", "ko'payib-ulg'ay", "omad bersin" kabi iboralar. Ostonqul Jo'rayevning aytishiga qaraganda dehqonlar hutning ohirgi chorshanba kuni hosil mo'l bo'lishi uchun

"Ilohi omin, yerimiz zo'r bo'lsin,
Ekkanimiz zar bo'lsin,
Bug'doyimiz chosh bo'lsin
Yeganimiz osh bo'lsin,
Tevaragimiz bog' bo'lsin,
Bobo dehqon davlat bersin,
Xirmonga barakat bersin! [7]

Bu birliklar iqtisodiy va ijtimoiy farovonlik, "ko'payish" va "muborak bo'lish" konseptlarini ifodalaydi. Ular jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va ezgulikni targ'ib qilish funksiyasini bajaradi.

- sog'lik va farovonlik bilan bog'liq leksika: "sog'-salomat bo'l", "omon bo'l".

Ona yurtning omon bo'lsa
Rangi ro'ying somon bo'lmas. [6]

Ushbu birliklar jismoniy va ruhiy salomatlik, baxt va osoyishtalikni bildiradi. Shu bilan birga, ular psixologik qo'llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi.

- omad va muvaffaqiyat bilan bog'liq leksik birliklar: "yo'ling yorug' bo'lsin", "qadamlaring muborak bo'lsin".

Mehrlari issiq bo'lsin,
Yo'llari yorug' bo'lsin,
Rizq-ro'zi mo'l bo'lsin,
Bolalari ko'p bo'lsin.

Yuqorida keltirilgan to'rtlik, kelin kuyovdan chiroq aylantirayotganda ijro etiladigan an'anaviy aytim bo'lib, folklorshunos B.Sarimsoqov tomonidan laparchi Buveshoy Turdimovadan yozib olingan.[5] Bu birliklar ijtimoiy muvaffaqiyat va barakani bildiradi, marosim nutqida performativ funktsiyani bajaradi va tilak akti amalga oshirilgan ishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

-totuvlik va mehr-muhabbat bilan bog'liq leksik birliklar: "o'zingdan ko'pay", "uvali juvali bo'l". Ushbu birliklar ijtimoiy uyg'unlik, tinchlik va mehr-muhabbat konseptlarini aks ettiradi va jamiyatda ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlash, yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasini bajaradi, tilak va olqishlarda arxaik va mifologik leksik birliklar ham uchraydi.

Yomg'ir yog'dir ko'l bo'lsin,
Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin.
Arpa bug'doy bosh tortsin,
Karvoniylar osh tortsin.[5]

Masalan:"ko'kdan yomg'ir yog'lsin" iborasi osmon xudolari bog'liq metafora, "yo'ling yorug' bo'lsin" esa nur arxetipi bilan bog'liq bo'lib, xalq tafakkuridagi qadimiy mifologik konseptlar va kollektiv ongni aks ettiradi.

Tilak va istak aktlaridagi leksik birliklar pragmatik jihatdan ham samarali: ular nutqni ixchamlashtiradi, qisqa va lo'nda iboralar yordamida tez esda qoladi, emotsional rang beradi va jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarni targ'ib qiladi.

Shu tariqa o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidagi tilak va istak aktlari leksik jihatdan boy, semantik jihatdan qatlamli va pragmatik jihatdan samarali ekanligi aniq bo'ladi. Ular xalqning qadimiy ezgulik konseptlarini, psixologik, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi.

Qadimgi yozuvlar va adabiy asarlarda tilak va istak aktlari

Tilak va istak aktlari nafaqat og'zaki ijodiyotda, balki qadimgi yozma manbalarda ham uchraydi. Ular asosan tarixiy, diniy, adabiy va marosimiy matnlarda saqlangan bo'lib, xalqning ezgulik, baraka, tinchlik va farovonlik kabi qadimiy qadriyatlarini ifodalaydi. Qadimgi turkiy yozuvlarda, masalan, Orxon-Yenisei yozuvlarida IX–X asrlarda hukmdor farmonlari va qabrlarga yozilgan matnlarda "baraka bersin", "qut top" kabi iboralar uchraydi. Bu matnlar xalqning ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarini aks ettirib, marosim nutqidagi tilak aktlarini ko'rsatadi. Islomiy davr yozuvlarida, xususan IX–XVI asrlar

Qur'oni Karim sharhlari va hadislarida, duo va tilak shaklidagi iboralar keng tarqalgan: "Alloh baraka bersin", "omad yo'lingizda bo'lsin". Ushbu iboralar jamiyatda baraka, tinchlik va sog'liqni targ'ib qilish vazifasini bajargan. Qadimgi adabiy asarlarda ham tilak va istak aktlari o'z ifodasini topgan. Masalan, Firdavsiyning "Shahnama" asarida qirollar va qahramonlar uchun tilak va omad so'zlari ishlatilgan: "Yo'ling yorug' bo'lsin, shohlik baraka topsin". Bu nasriy va doston shaklidagi matnlarda tilak aktlarining performativ va kognitiv funksiyasi aks ettirilgan. Alisher Navoiy "Xamsa" asarida har bir qahramon yoki voqeaga bag'ishlangan duo va tilak shakllari mavjud: "Yuraging nur bilan to'lsin", "Omading barakali bo'lsin". Bular emotsional va ma'naviy ta'sir vazifasini bajaradi. Shuningdek, o'zbek xalq dostonlari va rivoyatlarida, masalan, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlarida, qahramonlarga bag'ishlangan tilak va omad so'zlari uchraydi: "Xudo yo'lingni yorutsin, dushmaningni yeng". Bu tilak aktlari folklor, adabiyot va madaniy qadriyatlarni birlashtiruvchi kuchga ega.

Shu tariqa, tilak va istak aktlari o'zbek xalq ijodida nafaqat og'zaki, balki qadimgi yozuvlar va adabiy manbalarda ham uzluksiz meros sifatida davom etgan. Ular xalqning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini, emotsional va ma'naviy orzu-intilishlarini ifodalaydi va har davrda jamiyatda baraka, tinchlik va omad tilash vazifasini bajargan.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotidagi tilak va istak aktlari xalqning qadimiy ezgu orzu-intilishlarini, ijtimoiy-madaniy tajribasini, ruhiy-ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy hodisadir. Maqol, matal, duo va olqishlarda namoyon bo'luvchi optativ konstruktsiyalar xalq tafakkurining asrlar davomida shakllangan ijobiy konseptlarini — baraka, tinchlik, sog'lik, totuvlik, davomiylik va baxt tuyg'ularini ifodalaydi. Ushbu tilak-istak birliklari mifiy qatlamlar, marosim an'analari hamda zamonaviy nutq madaniyatidagi tirik qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ularni lingvopragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish o'zbek madaniy merosini chuqur anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo'shjonov, M. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – 216 b.
2. Gulomov, A. O'zbek xalqining urf-odat va marosimlari. – "Yozuvchi" nashriyoti Toshkent-1987. -B.208
3. Hojiyev, A. Semasiologiya masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 240 b.
4. Jirmunskiy V. M., Zarifov X. T., Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos, Moskva-1947

5. Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek Mifologiyasi "O'qituvchi nashriyoti"-Toshkent,2019. -B-95-100
6. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi Toshkent-2010. -B-65-67
7. Madayev O. O'zbek xalq o'g'zaki ijodi. "Mumtoz so'z" nashriyoti Toshkent,-2010. -B-82.

